

HUSAYN VOYIS KOSHIFIYNING AXLOQIY QARASHLARI

Yuldosheva Baxtinur Shokir qizi

Andijon davlat chet tillari instituti talabasi

Annotatsiya: *Koshifiyni keying avlodga qoldirgan merosi. Uni Yozgan asarlarini hozirgi kundagi o'rni. Husayn Voiz Koshifiy haqida buyuk allomalar Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro va Mir Said Roqimninglarning fikrlari. Husayn Voiz Koshifiy baland ovozda yaxshi va'z qilganligi uchun olimlar va fozillar o'zlarining xos majlislarida uni taklif qilishi.*

Kalit so'zlar: *Voiz, axloq, odob, kashf qilmoq, mutafakkir, notiq, kuchli, matematika, fors tili, tarix, san'at.*

Buyuk mutafakkir, ilohiyotchi olim, adib va o'z davrida voizlik san'atining yirik namoyandasi bo'lgan Husayn Voiz Koshifiy XV-XVI asrlarda yashab o'tgan. Alisher Navoiy Koshifiy haqida shunday deydi: "Mavlono Husayn Voiz Koshifiy taxallusi qilur, sabzavorlikdir", - deb yozgan.

XV asrning ikkinchi davrida Alisher Navoiy atrofida to'plangan alloma, shoir va donishmandlar orasida mashhur va qomusiy talant egalaridan biri edi. Kamoliddin Husayn-allomaning ismi-sharifi, Voiz (notiqlik) – laqabi, Koshifiy (kashf qilmoq, yaratmoq) – adabiy taxallusidir. Olimlarning o'ylashicha u boshlang'ich ma'lumotni Sabzavorda olgan deyiladi. U arab, fors, turkey til, matematika, astronomiya, kimyo, musiqa, adabiyot, fiqhdan to'liq ma'lumotga ega bo'lgan. Yoshligidanoq voizlikga qiziqqan va shu san'at bilan shug'ullangan. Husayn Voiz Koshifiy tez orada Sabzavorda ko'zga ko'ringan voiz-notiq bo'lib tanilgan. Avval Nishopurda keyinchalik Mashhada yashab voizlik qilgan. Husayn Voiz Koshifiy o'zining asarlarida diniy-ijtimoiy nizolarni mo'tadillik va bag'rikenglik asosida hal qilishga katta e'tibor qaratgan. Bunda unga buyuk olim,

o'z davrining yetuk mutafakkiri, shoir Alisher Navoiy katta yordam beradi va bevosita rahnamolik qiladi.

Chunki, Jomiy vafotiga Navoiy yozgan quyidagi marsiya bunga yaqqol isbot bo'la oladi. «**Ul jumladin huruf roqimi bu marsiya bilan tarixni aytib, yili oshi tortarda sultoni Sohibqiron (Husayn Bayqaro) oliy majlislarida o'tkardi va hukm bo'ldikim, mavlono Husayn Voiz minbar ustida o'qidi**». Voiz Koshifiyning nafaqat ilmi, uning odob axloqi ham yuksak darajada bo'lgani uchun Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro uni hurmat va ehtirom qilib, uni o'z yig'inlarida va majlislarida uning pand- nasihatlarini tinglaganlar. Bu haqida Mir Said Roqim shunday deb yozadi: "Mavlono Kamoliddin Husayn Ali Voiz Koshifiy baland ovozda yaxshi va'z qilganligi uchun olimlar va fozillar o'zlarining xos majlislarida uni taklif qilishar edi". Husayn Voiz Koshifiyning ikki qizi va bir o'g'li bo'lib, o'g'li Fahridin Ali as-Safiy o'z davrining katta shoiri, yozuvchisi va olimi bo'lib yetishgan. Ali as-Safiyning islom tarixiga, payg'ambarlar hayotiga, adabiyotga, Koshifiy o'z davrining ilmiy tili bo'lgan fors tilida ijod qilgan. Bundan tashqari undan ko'plab ilmiy va badiiy tarjima asarlari ham meros qoldirgan. U falsafa, axloq, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, siyosat, tarix, kimyo, astronomiya, matematika, musiqa, voizlik, she'r, san'ati, din tarixi, fiqh, tibbiyot kabi fanlarga oid 200dan ortiq asar yozib qoldirganligi manbalarda ma'lum. Chet mamlakatlarda Koshifiy asarlariga qiziqish XVIII-XIX asrlardayoq kuchli bo'lib, G'arbiy Ovro'paning X.G.Kin, M.Duayt, D.D.Donelson, E.Braun, A.A.Arberri, E.S.Kennedi, E.Rozental, X.Masse, K.S.Lambton, R.Levi, A.M. Shasteri kabi mashhur olimlari Markaziy Osiyo va Eronning XIV-XV asrlardagi madaniyati tarixini atroflicha o'rganishga harakat qilganlar va Koshifiyning ijodi, merosiga yuqori baho berganlar.

Bundan tashqari u o'z davrining ko'zga ko'ringan iloxiyotchi olimi bo'lib, hadisni, Qur'oni Karimni yoddan bilgan, hatto Qur'onga to'rt kitobdan iborat sharh ham yozgan. Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy", "Risolai Xotamiya", "Anvori Suxayliy", "Futuvvatnomai Sultoniy", "Tavsiri Husayniy", "Javohirnoma" kabi asarlar shular jumlasidandir.

Husayn Voiz Koshifiyning eng mashhur asari “Axloqi Muhsiniy” bo‘lib, Koshifiy bu asarini 1495-yilda yozib tugatgan. Aslida bu asar Sulton Husayn Mirzoning o‘g‘li, temuriy shahzoda, Marv hukmdori abul Muhsimn Mirzoga bag‘ishlangan. Shu uchun ham kitobning asl mazmuni “Yaxshi xulqlar”dan tashari “Muhsiniyning axloqi” ma’nosini ham bildiradi. Bu asar 40 bobdan iborat bo‘lib, boshlang‘ich boblarda ibodat, duo, ixlos va boshqa tushuncha, atamalar bayoni, keyingilarida esa, podshoh va yuksak martabali davlat arboblarning vazifalari, axloq-odobi, mulozimlari bilan munosabati juda ko‘plab tarixiy shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida yoritilgan. Kitobda axloqqa oid boshqa mashhur asarlarga iqtibos va havolalar ko‘plab uchraydi. Koshifiy o‘z qarashlarida adolat, insonparvarlik, axloqiy kamolot, vijdoniylik g‘oyalarini ilgari suradi. Vijdon insonni nazorat kiluvchi tuyg‘u, insonparvarlik insonning eng yaxshi fazilatidir deydi. Voiz Koshifiy fikricha, yaxshi xulq, mamlakat mazmunini belgilovchi omildir. Inson hayoti daryodek tez va ravon o‘tib ketaveradi. Gap uni mazmunli va foydali, bekorchi narsalar bilan vaqt o‘tkazmaslik yaxshi ishlarga sarf qilishlikdadir. Inson dunyoda uchta yaxshilik qilishi shart.

Birinchisi: odamlar uchun uy, ko‘rik va yo‘l qurish;

Ikkinchisi: mevali daraxt ekish;

Uchinchisi: farzand qoldirish kerak. Chunki bu yaxshiliklar dunyoda sobit qoladi.

Koshifiy shunday deydi:

Chunki qolmas bu jahon barqaror,

Yaxshi ish qilg‘inki, qolg‘ay yodgor.

Shunday qilib, yaxshilik insondan qoladigan abadiy yodgorlikdir. Koshifiy yaxshilik insondan faqat tarbiya, bilim va turmush tajribalari orqali tarkib topishini aytadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, har bir inson jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun o‘qib o‘rganishi zarur. Koshifiyning asarlari inson tarbiyasi juda kerakli bo‘ladi. Inson doim o‘zidan doim yaxshi iz qoldirishini xoxlagan. Koshifiy o‘zidan ko‘ra boshqalarni ko‘proq o‘ylashi menga juda yoqdi. Inson doim shirin so‘z

bo'lishi va yordam qo'lini cho'zgan. Koshifiy XV asrda Xuroson va Movaraunnahr madaniyati rivojiga katta hissa qo'shdi. Koshifiy o'zining asarlari bilan chuqur iz qoldirdi va keying avlodlarga axloqiy ta'sir ko'rsatgan buyuk alloma sifatida tarixda qoldi. U o'zining yuksakligi va o'z bilimlari bilan nafaqat Markaziy Osiyo balki butun Sharq umuminsoniy, madaniy boyliklarini kuchaytirishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti, Toshkent-2017.
2. Xaydarov S. A. (2021). Mamlakat tarixini o'qitishda tasviriy san'atdan foydalanishning o'rni. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. YANGI FANI. Konferentsiya materiallarida (41-43-betlar).
3. Davrenov, J., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA XVI-XVIII ASRLARDA YAPONIYA DAVLATI TARIXINI AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).
4. Narmatov, D., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA ISPANIYA XV-XVII ASRLARDAGI TARIXI. Scientific progress, 1(6).
5. Elguzarov, B. B. O. G. L., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA MITANNI DAVLATCHILIGINING O'RNI progress, 1(6), 616-619. VA AHAMIYATI, Scientificc.
6. Mirzakarimova M. CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №. 6. – C. 410-415.
7. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 11. – C. 78-83.

8. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 12. – C. 321-324.

9. Mirzakarimova M. M. et al. “Avesto” va pedagogik fikrlar rivoji //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 2. – C. 224-228. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6696>

10. Mirzakarimova M. M. et al. Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 3. – C. 264-269.

11. MADAMINJONOVNA M. M. XORIJIY TILLARNI TADBIRKORLIKKA YO ‘NALTIRIB O‘QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI //Nova. Pub. – 2022. – C. 1-128.

12. Madaminjonovna M. M. Zamonaviy sharoitlarda umumta’lim fanlarini tadbirkorlikka yo ‘naltirib o ‘qitish tizimi //Science and Education. – 2020. – T. 1. – №. 4. – C. 216-222.

13. Madaminjonovna M. M. Umumta’lim fanlarini tadbirkorlikka yo ‘naltirib o ‘qitish tizimi //Science and Education. – 2020. – T. 1. – №. 4. – C. 97-103.

14. Madaminjonovna M. M. K. L. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES. Retrieved from <http://xn--e1aajfpcds8ay4h.com.ua/menus/view/202/>.

15. Mirzakarimova M. M. EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES //Академические исследования в современной науке. – 2023. – T. 2. – №. 8. – C. 92-94.

16. Mirzakarimova M. M. The Necessity to Develop Students’ Entrepreneurial Skills in English Classes //Telematique. – 2022. – C. 7128-7131.

17. Мирзакаримова М. М. ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL “INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY”. – 2020. – T. 1. – №. 1. – C. 63-65.

18. Madaminjonovna M. M. Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies //International Journal of Human Computing Studies. – 2023. – T. 5. – №. 3. – C. 15-17.

19. <https://arboblar.uz/uz/people/khusejn-vaiz-kashifi>.

20. <https://malumot.ru/husayn-voiz-koshifiy-1440-1505/>.

21. <https://tarix-kitob.uz/manaviyat-yulduzlari/husayn-voiz-koshifiy-1440-1505/>.